

## DARSDA MUSIQIY DIDNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

**Mahmudov Jahongir Saminjon o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti Musiqa ta’limi va madaniyat fakulteti  
Vokal san’ati 3 – bosqich talabasi

E-mail: [Jahongirmahmudov1997@gmail.com](mailto:Jahongirmahmudov1997@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumiy o‘rtta ta’lim maktabalarida musiqa darslarida darsda musiqiy didni shakllantirish omillari, bolalarga musiqa fani yuzasidan yanada kengroq ma’lumotlar berish va qiziqishlarini yana oshirish hamda yangi metodlar bilan dars olib botish yuzasidan so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** musiqiy did, shakl, zamonaviy metodlar, ohang, asbob, kuylar, nota, takt chizig‘i.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье речь пойдет о факторах формирования музыкального вкуса на уроках музыки в общеобразовательных школах, о том, как дать детям более широкий круг знаний по предмету музыка и повысить их интерес к ней, а также погрузиться в занятия новыми методами.

**Ключевые слова:** музыкальный вкус, форма, современные методы, мелодия, инструмент, мелодии, нота, тактовая линия.

### ABSTRACT

This article will talk about the factors of formation of musical taste in the lesson in music lessons in general secondary schools, providing children with more comprehensive information on music science and increasing their interests again, and conducting lessons with new methods.

**Keywords:** musical taste, form, modern techniques, melody, instrument, melodies, note, tact line.

Tabiat va jamiyatdagi turli – tuman narsalarga inson estetik munosabatda bo‘lar ekan, hech qachon ularga befarq qaramaydi. Har qanday estetik munosabatni emotsiional munosabat deyish mumkin.

Ko‘m – ko‘k o‘tloqlarga va toshlar orasidan shildirab chiqib keng dala va bog‘larga oshiqayotgan buloq suvlariga termulib, yoki olmazordan eshitilayotgan qushchlarning nag‘masiga qulq solib baxrimiz ochiladi. Agar “qizil gul” degan so‘zlarni

qanchalik takrorlamaylik, bundan zavq ololmaymiz. Lekin qo‘limizda guldasta tutib tursak yoki xovlidagi chamandek ochilgan atirgullarga qarasak quyosh nurlaridan rang – barang tovlanayotgan gullar anvoyi hidi bilan, ko‘zni qamashtiruvchi latofatli husni bilan bizga zavq – shavq bag‘ishlaydi, ko‘nglimizni ravshan etib, ruhimizni ko‘taradi.

Tabiat va jamiyatga estetik munosabatda bo‘lgan vaqtida vujudga keladigan hayajon “yorqin quvnoq” bo‘ladi. Masalaning murakkabligi shundaki, hayotda juda ko‘p hayajonlanamiz, lekin ularning hammasini estetik hayajon deb bo‘lmaydi. Estetiklikka teskari bo‘ladigan hayajonlar ham mavjud. Masalan, qaerda qo‘rquv, vahima bo‘lsa bunday joyda estetik kechinma bo‘lishi amiri – mahol. Biror narsa yoki voqeadan jirkanish hissiyoti ham estetiklikka qarama – qarishi hissiyotdir.

Estetik zavqlanishni yoqimli va yoqimsiz fiziologik hislaridan farqlash kerak. Biror kishining kelishgan qomati va harakati mast kishining gandraklab ketayotgan qomatiga nisbata, shubhasiz, yoqimlidir. Ammo bunday yoqimli hislar ham estetik tuyg‘ular bo‘la olmaydi. Sportchining ustalik bilan qilayotgan harakatlari bizga yoqimli bo‘ladi. Balet raqqosasining latofatli raqsi, harakati va xolatlari esa, bizga estetik jihatdan ta’sir etadi, uning har bir harakatidan chuqur insoniy ma’no his qilinadi.[1]

Estetik kechinma pallasida inson shunday hayajonga keladiki, bu hayajon oddiy biologik hissiylardan juda ustun va yuqori turadi. Estetik hayajonda, ya’ni ijobiy tuyg‘ularda insonning hqiqiy fazilatlari o‘z aksini topadi. Qaerda tuyg‘u bo‘lsa, o‘sha yerda fiziologik hissiyotlar ustundir; qachonki, qo‘rquv estetik tusolsa (xuddi san’at asarlarida tasvir etilganday), u yuksak insoniy tuyg‘ulardir. Sevgi tuyg‘ulari asosida ham oddiy biologik hissiyotlar yotadi. Agar kimki sevgi tuyg‘ularini aql ishtirokisiz duch kelgan joyda namoyish etishga harakat qilsa, kishi olmasa, bunday paytda eng kuchli hissiyotlar ham o‘z estetik ko‘rkini yo‘qotadi va hirsiy beboslikka yetaklaydi. Sevgi tuyg‘ularida insonni oliyanoblikka ko‘taruvchi tomonlar bo‘lsagina bunday hissiyotlar kishida estetik kechinma hosil eta oladi.

Hozirgi kunda estetik tarbiyaga e’tibor berilmaydigan maktab, litsey, kollej, oliy o‘quv yurtlari, bolalar va yoshlarning jamoatchilik tashkiloti yo‘q. Radio, televidenie, vaqtli matbuot ham yoshlarni estetik kamol toptirishni asosiy muammolardan biri deb qaralmoqdi.

Go‘zallikni tushunish, his etish qobiliyati faqat o‘quvchidagi rivojlanish darajasining muayyan mezoni, ko‘rsatgichi emas. Balki u shaxsning o‘z qobiliyatları rivojlanishi uchun stimul sifatida namoyon bo‘lib, ko‘pincha o‘quvchining o‘z teng qurlari, yaqin kishilar, sind va maktabdagi o‘rtoqlari bilan ma’naviy aloqalarining u yoki bu darajasini oldindan belgilaydi.[2]

Tabiiyki, o‘quvchilar insoniyat yaratgan chinakam ma’naviy va estetik kamolotni mukammal bo‘ladi.

Shuni unutmaslik kerakki, har qanday ijtimoiy hodisaning ham estetik, ham ahloqiy mohiyati bo‘ladi. Ahloqiyilik, go‘zallik qadimdan qandaydir tarkibiy birlik sifatida tushuniladi. Insonparvarlik nuqtai nazaridan ahloqiy, ma’naviy kishini yuksaltiradigan va unga zeb beradigan narsa go‘zallikdir, ahloqiy narsa esa go‘zallik bilan ichki bog‘lanishda bo‘lmasa, uni ma’naviy – estetik deb e’tirof etib bo‘lmaydi.

O‘qituvchi ahloqiy va estetik sohalarning ichki yaqinligi, ma’no jihatdan birligini doimo e’tibordan chetda qoldirmasligi zarur. O‘quvchilarni estetik tarbiyalash yuzasidan ish olib borayotgan maktablarning amaliy tajribali ular ijodiy mehnatlari bilan asosiy vazifasini samarali hal etayotganini, ya’ni har tomonlama rivojlangan, o‘zida ma’naviy boylik (yuksak rivojlangan ma’nolarni), ahloqiy poklik va jismoniy kamolotni mujassamlashtirgan shaxsni shakllanayotganini ko‘rsatmoqda. Shu sababli respublikamizdagi har bir maktabda hozir estetik tarbiyaga shaxsni shakllantirish tizimining eng muhim elementi deb qaralmoqda. Mohir o‘qituvchi estetik tarbiya o‘quvchilarda hayotga, adabiyot va san’atga estetik munosabatni, ularga yuksak talabchanlik qobiliyatini, badiiy asarlarni adabiyot va san’atning xalqchiligi nuqtai – nazaridan ob’ektiv boholay olish iqtidorini tarkib toptiradigan va takomillashtiradigan vosita hamda metodlar yig‘indisi ekanini tushunadilar.

Xulosa qilib aytganda har bir maktabda bolaga estetik tarbiya berishning intensiv va rivojlantiruvchi kompleksini tashkil etish uchun estetik tarbiyaning vazifalari va maqsadlari bir tomonlamaligi haqidagi tushunchalarni bartaraf etish kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Turg‘unboyev.F.Musiqa estetik ong sohibi.Toshkent.2006.B-45.
2. Mamasiddiqov.A.Musiqa o‘qitish metodikasi va tarixi.Toshkent.2011.B-126.